

CHOL BILAN HAKKA (Qoraqalpoq xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir chol bilan kampir bo‘lib, ular ikkovlon jo‘xori ekib tirikchilik qilarkanlar. Mehnat qilib ekan jo‘xorilarini har yili bir hakka kelib cho‘qib yeb ketarkan. Chol bilan kampir o‘zaro: «Bu yil ham ekan dehqonchiligimizni hakka kelib yeb ketmasin, undan qutulishning ilojini ko‘raylik», — deb o‘ylashib - o‘ylashib, oxiri bir qarorga kelibdilar-da, jo‘xori ekilgan dala boshiga tuzoq qo‘yibdilar. Har yilgi odatiga ko‘ra, jo‘xorilar o‘sib, yuk bog‘lagan bir paytda hakka uchib kelibdi-da, bir chekkadan qiyрата boshlabdi. Shunda hakka o‘zi bilmagan holda tuzoqqa ilinib qolibdi. Ko‘p yillardan beri pand berib yurgan tekinox‘rni ushlab olgan chol hakkani o‘ldirib qutulmoqchi bo‘libdi. Shu payt hakka tilga kirib:

— Sen meni o‘ldirma. Mening uyimda g‘aroyib bir dasturxon bor, meni qo‘yib yuborsang, senga o‘sha dasturxonni beraman. Dasturxonni qo‘lga olib: «Ochil, dasturxon, ochilgin darhol, qornim ochqadi, ovqat beraqol!» desang, dasturxon ochilib, xohlagan ovqating muhayyo bo‘ladi, — debdi. Chol hakkadan uyining qayerdaligini so‘rabdi. Hakka uyiga eltadigan yo‘lni tushuntiribdi.

— Biroq uyimni bir qopag‘on it qo‘riqlaydi, u faqat qo‘yning soninigina yeydi. Shuning uchun boradigan paytingda qo‘y so‘yib olib bor. Yo‘qsa, itim kiritmaydi, kirsang chiqarmaydi, — debdi ozod bo‘lib uchib ketayotgan hakka.

Chol ertasiga bir qo‘yini so‘yib, qo‘yning ikki sonini o‘rab olibdi-da, hakkaning uyini izlab ketibdi. Topib borsa, bahaybat bir it bog‘liq turgan ekan. Chol qo‘ymng sonidan birini itga tashlab ichkariga kiribdi. Uyning to‘rida hakka paryostiqlarga suyanib yotgan ekan. Hakkaning boylik, mol-dunyosiga cholning juda hasadi kelibdi va «hakkadan ko‘p narsalar so‘rasam bo‘larkan», deb pushaymon bo‘libdi. Hakka o‘zi aytgan sehrli dasturxonni qo‘lga olib:

— Ochil, dasturxon, ochilgin darhol, qornim ochqadi, ovqat beraqol! - degan ekan, dasturxon ochilib, uning ustida turli-tuman noz-ne‘matlar, ovqatlar paydo bo‘libdi. Chol bilan hakka ovqatlarga to‘yib olibdilar. Hakka:

- Yig‘il, dasturxon, qilding ko‘p himmat, qornimiz to‘ydi, senga ko‘p rahmat! — degan ekan, dasturxon yig‘ilibdi. Hakka uni cholga berayotib:

— Yaxshi niyat bilan senga bag‘ishladim, uyimdan yaxshi niyat qilib chiq, — debdi. Hakkaning turmushiga hasadi kelayotgan chol esa: «Ertaga yana tuzoq qurib, shu hakkani ushlab olaman...» — degan xayolga boribdi. U qo‘yning ikkinchi sonini itga tashlab tashqariga chiqibdi-da, yo‘lga tushibdi. Uyiga kelayotib, namoz o‘qibdi va: «Xudoyo, shu hakkani ushlab yana nasib qilsin», deb niyat etibdi. Shu payt hakka bildirmay uchib kelibdi-da, sehrli dasturxonni oddiy bir dasturxon bilan almashtirib qo‘yibdi. Chol uyiga kelib:

— Hoy kampir, qo‘lingni yuv, ovqatlanamiz, sehrli dasturxonga ega bo‘ldik, xudo xohlasa, ertaga yana ham boyib ketamiz! — debdi.

Chol bilan kampir quvonishib, qo‘llarini yuvib kelib:

— Ochil, dasturxon, ochilgin darhol, qornimiz ochdi, ovqat beraqol! — deb ming qichqirsalar ham dasturxon ochilmabdi. Hakkaning uyida yomon niyat qilganining kasri tekkanini chol ana shundagina sezib qolgan ekan.

“Bir qalpoq oltin” kitobidan